“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=328

2025-yil
3-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Davlat yer nazoratining huquqiy asoslari

Shoxnazar Bobokulov,
Toshkent xalqaro universiteti
“Huquqiy fanlar” kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar doktori (DSc)
e-mail: bobokulov2504@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada davlat yer nazoratining huquqiy asoslari, uning mazmun-mohiyati va amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilingan. Yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida koʻrib chiqiladi. Shuningdek, yer munosabatlarini tartibga solishda qonunchilik va nazorat organlarining oʻrni yoritilgan.

Калит сўзлар. Davlat yer nazorati, huquqiy asoslar, yer munosabatlari, qonunchilik, yerdan foydalanish, nazorat organlari

Аннотация. В статье рассматриваются правовые основы государственного земельного контроля, его содержание и механизмы реализации. Землепользование и охрана земель анализируются как одно из приоритетных направлений государственной политики. Особое внимание уделено роли законодательства и контрольных органов в регулировании земельных отношений.

Ключевые слова. Государственный земельный контроль, правовые основы, земельные отношения, законодательство, землепользование, контрольные органы

Annotation. This article examines the legal foundations of state land control, its essence, and mechanisms of implementation. Rational land use and land protection are considered as one of the priority areas of state policy. The role of legislation and supervisory bodies in regulating land relations is also highlighted.

Keywords. State land control, legal foundations, land relations, legislation, land use, supervisory bodies

Oʻzbekiston Respublikasida bozor munosabatlariga hamohang tarzda yer uchastkalaridan oqilona va maqsadli foydalanilishini ta'minlash, ularni muhofaza qilish, yangi yerlarni oʻzlashtirish hamda qayta muomalaga kiritish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuning bilan birga bugungi kunda hududlarda yer qonunchiligiga rioya qilmaslik, yer uchastkalaridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish, jumladan noqonuniy qurilmalar qurish, shuningdek, yerlarni o‘zboshimchalik bilan egallash holatlari uchrayotganligi bu borada raqamli texnologiyalardan keng foydalanish orqali yagona nazorat tizimini joriy etish hamda vakolatli idoralar o‘rtasida hamkorlikni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5006-qarorida belgilangan vazifalar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243-sonli Farmonida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi “Yer uchastkalaridan foydalanishda davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 138-qarori qabul qilinishi yer qonunchiligini takomillashuvi yangi yer islohoti davrida davlat yer nazorati yuritilishini yangi bosqichga olib chiqdi.

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 831 va 84-moddalari, “Geodeziya va kartografiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 12-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 7-sentabrdagi 4819-son, “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 24-fevraldagi PQ-5006-son va “Yer uchastkalaridan foydalanishda davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 21-fevraldagi PQ-138-son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-apreldagi 183-sonli “Davlat yer va kadastr nazoratini amalga oshirish tartibi hamda Davlat geodeziya nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomlarni tasdiqlash haqida”gi qarori asosida Davlat yer va kadastr nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi [4].

Ushbu qonun va qonun osti hujjatlari asosida yer resurslarini boshqarish jarayonida davlat nazoratini yuritilishi davomida aniqlangan yer qonunbuzilish holatlari tizimli dastur asosida yuritilishini ta'minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-fevraldagi 5006-qarori 10-bandiga asosan yerga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, hujjatlar to‘plamini shakllantirish va ularni ko‘rib chiqish monitoringini yuritish bo‘yicha “E-YER NAZORAT” avtomatlashtirilgan axborot tizimi yaratilgan [3].

Shuning bilan birga, yer uchastkalaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasida nazoratni yanada kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

21-fevraldagi 138-qarori 1-2-bandlariga asosan prokuratura organlari zimmasiga quyidagi qoʻshimcha vazifalar yuklatilgan:

– yer uchastkalarini ajratish, yangi yerlarni oʻzlashtirish hamda qishloq xoʻjaligi muomalasiga kiritish bilan bogʻliq respublika va mahalliy dasturlarda belgilangan tadbirlarning oʻz vaqtida va toʻliq ijro etilishi yuzasidan muntazam nazorat oʻrnatish;

– qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan va moʻljallanmagan yer uchastkalarini ajratishda Yer kodeksida hamda qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya qilinishini ta'minlash yuzasidan doimiy nazoratni amalga oshirish;

– mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlarini ishlab chiqish, kelishish va roʻyxatdan oʻtkazishning yagona elektron – “E-qaror” tizimini doimiy ravishda monitoring qilish hamda qonunchilik hujjatlariga muvofiq boʻlmagan qarorlarga nisbatan ta'sir choralarini koʻrib borish;

– yer uchastkalarini oʻzboshimchalik bilan egallash va ulardan noqonuniy foydalanish holatlarini barvaqt aniqlash hamda huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan jazoning muqarrarligi ta'minlanishi ustidan qat'iy prokuror nazoratini oʻrnatish;

– yer toʻgʻrisidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi ahvolini muntazam oʻrganib borish, sohada huquqni qoʻllashning yagona amaliyotini shakllantirish;

– ilgʻor xorijiy tajriba asosida yerdan oqilona foydalanish boʻyicha takliflar tayyorlash;

– qishloq xoʻjaligini rivojlantirish va oziq-ovqat ta'minoti jamgʻarmasi mablagʻlari, shuningdek, sohaga yoʻnaltirilayotgan tegishli budjetdan tashqari mablagʻlar, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari mablagʻlari maqsadli sarflanishini oʻrganib borish kabilar.

Shuningdek, Prokuratura organlari zimmasiga yuklangan qoʻshimcha vazifalar ijrosini samarali tashkil etish maqsadida Bosh prokuratura tarkibida 8 ta shtat birligidan iborat boʻlgan Yer resurslari talon-toroj qilinishining oldini olish boshqarmasi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalarida esa umumiy soni 56 ta shtat birligidan iborat boʻlgan Yer resurslari talon-toroj qilinishining oldini olish boʻlimlari” tashkil etish vazifasi yuklatilgan[3].

Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgust kuni oʻtkazilgan tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan mulkiy huquqlarning ishonchli himoyasini yaratish, ushbu huquqlarni cheklayotgan omillarni bartaraf etish boʻyicha vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, 2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-avgustdagi “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yoʻl qoʻymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 198-farmoni qabul

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

qilingan bo‘lib, ushbu farmonning 1-bandi “a” kichik bandi 1-qismiga ko‘ra yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarning vujudga kelishi uchun asos bo‘lgan hujjatlarni, shu jumladan Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hujjatlarini ularning o‘zi yoki yuqori turuvchi organ yoki mansabdor shaxslar tomonidan, xususan prokuror protesti asosida yerga bo‘lgan huquqlarni bekor qilish yo‘li bilan yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tugatish amaliyoti bekor qilindi. Ya'ni yer uchastkasiga bo‘lgan huquqning vujudga kelishi uchun asos bo‘luvchi hujjatlar faqatgina sud tomonidan bekor qilinishi yoki haqiqiy emas deb topilishi belgilab qo‘yildi [6].

Bundan tashqari, 2022-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va Kadastr agentligi o‘rtasida “Yerlardan maqsadli foydalanish va davlat kadastrlarini yuritish sohasida qonuniylikni ta'minlash bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida”gi 9-QT, Q-T/2-05-sonli Qo‘shma tartib ishlab chiqilgan bo‘lib, Kadastr agentligi tomonidan har bir jinoyat alomatlari mavjud bo‘lgan yer qonunbuzilish holatlari shu tartib asosida prokuratura organlariga berib boriladi.

Yer kodeksining 83-moddasida belgilanishicha, yer uchastkalarini ajratish, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshirishning asosiy vazifalari qonunchilik talablariga jismoniy va yuridik shaxslar, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan rioya etilishini ta'minlashdan iboratdir [1].

Yer uchastkalarini ajratish, ulardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan davlat yer nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

yuqori turuvchi mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan quyi turuvchi mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida yer to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini nazorat qilish;

xalq deputatlari kengashlari tomonidan mahalliy ijro hokimiyati organlari va ularga bo‘ysunuvchi davlat organlari faoliyatida yer to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini nazorat qilish [7].

Quyidagilar davlat yer nazorati bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organlari hisoblanadi:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi – yer toifasidan qat'i nazar, barcha turdagi yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazmaslik holatlarini, yer uchastkalarining o‘zboshimchalik bilan egallab olinishi va ushbu yer uchastkalarida o‘zboshimchalik bilan imorat qurilishini aniqlash, yer uchastkasi chegaralarini o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirishga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish, yer uchastkasidan maqsadli foydalanishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish bo‘yicha;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi – qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanishni tashkil etish va muhofaza qilish sohasida

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

samarali davlat nazoratini amalga oshirish bo‘yicha;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi – yerlarning ishlab chiqarish chiqindilari va boshqa chiqindilar, kimyoviy va radioaktiv moddalar, oqova suvlar bilan ifloslanishi, tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadidagi yerlardan, suv fondi yerlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish bo‘yicha.

Yer uchastkalaridan maqsadli foydalanilishi ustidan, yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshirmaslikka, o‘zboshimchalik bilan yer uchastkalarini egallab olishga yoki ularning chegaralarini o‘zgartirishga, yerlarning toifasidan qat'i nazar, barcha turdagi binolar va inshootlarni o‘zboshimchalik bilan qurishga yo‘l qo‘ymaslik ustidan davlat nazoratini amalga oshirish xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish hisoblanmaydi [13].

Maxsus vakolatli davlat organlari yer uchastkalarini ajratish bilan bog‘liq zarur statistik axborotni, tahliliy materiallarni, hujjatlarni, boshqa axborotni, qarorlarni hamda boshqa hujjatlarni, shu jumladan ochiq tanlovlarga va elektron onlayn-auksionlarga taalluqli axborotni davlat organlari va tashkilotlaridan yoki ularning mansabdor shaxslaridan beg‘araz asosda so‘rash va olishga haqli hamda davlat organlari, tashkilotlari va mansabdor shaxslar so‘ralayotgan axborotni maxsus vakolatli davlat organlariga besh ish kuni ichida taqdim etishi shart [12].

Kadastr agentligi organlarining davlat yer va kadastr nazoratini amalga oshirishdagi asosiy vazifalari:

yer toifasidan qat'i nazar, barcha turdagi yer uchastkalari hamda bino va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazmaslik holatlarini aniqlash;

yer uchastkalarining o‘zboshimchalik bilan egallab olinishi va ushbu yer uchastkalarida o‘zboshimchalik bilan imorat qurilishini aniqlash;

yer uchastkasi chegaralarini o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirishga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

yer uchastkalaridan maqsadsiz foydalanish holatlarini o‘z vaqtida aniqlash va chora ko‘rish;

davlat kadastrlarini yuritish tartiblariga rioya qilinishini ta'minlashga qaratilgan davlat kadastr nazoratini amalga oshirish [4].

Kadastr agentligi organlari davlat yer va kadastr nazoratini amalga oshirishda o‘zlariga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

yerlardan maqsadli foydalanish bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshiradi;

yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta'minlashga qaratilgan yer nazoratini amalga oshiradi;

yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olinishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan samarali yer nazoratini amalga oshiradi;

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

yer uchastkasi chegaralarini (chegara nuqtalarini) o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirishga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘radi;

aerokosmik suratlar va uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalangan holda yerlarni masofadan turib zondlashni, shuningdek, geodezik o‘lchov uskunalari yordamida yerlarni o‘rganishni tashkil etadi va amalga oshiradi;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta'minlashga qaratilgan samarali kadastr nazoratini tashkil etadi va amalga oshiradi;

kadastr yig‘majildi (pasporti) belgilangan tartibda shakllantirilishi va rasmiylashtirilishini nazorat qiladi;

davlat kadastrlarini yuritish tartiblariga rioya qilinishini nazorat qiladi.

Kadastr agentligi organlari o‘z vakolatlari doirasida qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifa va funksiyalarni ham amalga oshirishlari mumkin [10].

Qishloq xo‘jaligi vazirligi va ekologiya sohasi organlarining yerlarni muhofaza qilish bo‘yicha davlat nazorati sohasidagi funksiyalari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan davlat yer nazorati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi asoslarga ko‘ra o‘tkaziladi [7]:

yer monitoringi jarayonida yer to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishi kuzatilganda;

maxsus avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali hamda aerokosmik suratlarni solishtirish yo‘li bilan yer to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishi qayd etilganda;

jismoniy yoki yuridik shaxslarning yer to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi holatlari to‘g‘risidagi asoslangan murojaatlariga muvofiq;

ommaviy axborot vositalari yoki boshqa tashqi manbalarda (ijtimoiy tarmoqlar va veb-saytlarda) yerga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ma'lumotlar e'lon qilinganda;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shuningdek, boshqa davlat organlari va tashkilotlardan yerga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida dalolat beruvchi axborot tushganda.

Maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan yerga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, hujjatlar to‘plamini shakllantirish, ularni o‘z vaqtida va obyektiv ko‘rib chiqish maqsadida elektron hujjatlar almashinuvi «E-YERNAZORAT» AATdan foydalanilgan holda Davlat yer nazorati maxsus vakolatli davlat organi rahbarining buyrug‘iga asosan o‘n ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda amalga oshiriladi [3].

Yer to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun yuridik shaxsning mansabdor shaxsi yoki jismoniy shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilishi lozim bo‘lsa, maxsus vakolatli davlat organlarining yer nazoratini amalga oshirgan mansabdor shaxsi aniqlangan huquqbuzarliklar yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga muvofiq o‘z vakolatlari

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

doirasida ma'muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzadi va tegishli ishlarni amalga oshiradi.

Bizning fikrimizcha, Davlat yer nazoratini yuritish tizimini takomillashtirish nazorat tizimida shaffoflikni ta'minlash hamda tizimni raqamlashtirish, shuningdek, yer resurslarini boshqarish, yerlardan foydalanish va yer munosabatlarini tartibga solishda yer qonunchiligi normalariga amal qilishni ta'minlash uchun quyidagi yo‘nalishlarni rivojlantirish va takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Birinchi navbatda tashkiliy yo‘nalishlarda:

yer nazorati organlarining tarkibi hamda tuzilmasini shakllantirish;

Davlat yer nazorati organlarining vakolati va funksiyalarini belgilash;

yer nazoratini yuritish tizimini raqamlashtirish mexanizmini ishlab chiqish;

yer nazorati tizimini davlat organlari va jamoat nazoratlari hamkorligining integratsiyasini ta'minlash mexanizmini ishlab chiqish;

jamoat yer nazorati amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish;

yer qonunbuzilish holatlarini o‘rganish, tahlil qilish hamda qonunbuzilish holatlarini oldini olishga qaratilgan faoliyat tizimini takomillashtirish.

Ikkinchidan, huquqiy yo‘nalishlarda:

yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini ishlab chiqish orqali yer qonunchiligini asoslash;

yerdan foydalanuvchi subyektlar orasida teng huquqiylikni ta'minlash;

yer huquqini shakllantirishda inson huquqlarini ta'minlanishini kafolatlash orqali yerdan foydalanuvchilar orasida ishonchli muhitni yaratish;

Davlatning yagona yer siyosatini qonun talab va normalarida qat'iy belgilab berish va boshqalar.

Xulosa o‘rnida, davlat yer nazorati sohasida Respublikamizda olib borilayotgan yer uchastkalaridan samarali foydalanish tizimini yo‘lga qo‘yish, yerlar, ayniqsa, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar talon-toroj qilinishining oldini olish, mazkur jarayonlarga axborot texnologiyalarini keng joriy qilish orqali sohada raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish kabi islohotlar shubhasiz o‘zining ijobiy natijalarini beradi deyishimiz mumkin.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 8 июндаги ПФ- “Ер муносабатларида тенглик ва шаффофликни таъминлаш, ерга бўлган ҳуқуқларни ишончли ҳимоя қилиш ва уларни бозор активига айлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 6243-сонли Фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 24 февралдаги “Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан

фойдаланиш ва муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5006-сонли Қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 21 февралдаги “Ер участкаларидан фойдаланишда давлат назорати самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-138-сон Қарори.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси ҳузуридаги Кадастр агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2020 йил 7 сентябрдаги ПҚ-4819-сон Қарори.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 24 августдаги “Мулк ҳуқуқининг дахлсизлигини ишончли ҳимоя қилиш, мулкий муносабатларга асоссиз аралашувга йўл қўймаслик, хусусий мулкнинг капиталлашув даражасини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-198-сонли Фармони.

7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 14 апрелдаги 183-сонли “Давлат ер ва кадастр назоратини амалга ошириш тартиби ҳамда Давлат геодезия назоратини амалга ошириш тартиби тўғрисидаги Низомларни тасдиқлаш ҳақида”ги Қарори.

8. Бобокулов Ш.О. Ер муносабатларига доир давлат сиёсатининг ўзига хос хусусиятлари //Scientific progress. – 2022. —Б. 29-30.

9. Бобокулов Ш.О. Ер муҳофаза талаб этади ёхуд қонунчиликни такомиллаштиришнинг айрим масалалари // ТДЮИ Ахборотномаси. Илмий-назарий нашр 4-сон. 2011. –Б. 116-118.

10. Бобокулов Ш.О. Давлат ер кадастри юритишни амалга оширувчи давлат органлари ваколатларининг илмий ҳуқуқий моҳияти // scientific progress volume 4 issue 6 2023 Issn: 2181-1601.

11. Бобокулов Ш.О. Ерга бўлган ҳуқуқни давлат рўйхатига олиш ерга бўлган ҳуқуқларнинг вужудга келиш асоси сифатида //Journal of multidisciplinary bulletin Issn(online): 2984-6722 Sjif impact factor |(2024): 6.752| Volume-7, issue-3, published |20-03-2024| –Б. 5-15.